

**CHORVACHILIKDA YUQUMLI KASALLIKLARNI OLDINI OLISH
MASALASINING ZOOGIGIYENA BILAN ALOQADOR XUSUSIYATI**

Shernazarov Saparbay Jumanazarovich

*Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti
“Zooinjeneriya va veterinariya” kafedrası assistenti*

Xaydarov Muxriddin Nuriddin o‘g‘li

*Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti
“Zooinjeneriya” fakulteti 2-kurs Veterinariya meditsinasi (yirik shoxli molar
kasalliklari)*

Qung'irov Suyun Murodullo o'g'li

*Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti
“Zooinjeneriya” fakulteti 2-kurs Veterinariya meditsinasi (yirik shoxli molar
kasalliklari)*

Sharifboyeva Sohiba Zokirjon qizi

*Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti
“Zooinjeneriya” fakulteti 2-kurs Veterinariya meditsinasi (yirik shoxli molar
kasalliklari)*

**ZOOHYGIENE CHARACTERISTICS OF THE PROBLEM OF
PREVENTING INFECTIOUS DISEASES IN LIVESTOCK**

Shernazarov Saparbay Jumanazarovich

*Karakalpakstan Institute of Agriculture and Agrotechnologies
Assistant of the Department of “Zooengineering and Veterinary Medicine”*

Khaydarov Mukhriddin Nuriddin og‘li

*Karakalpakstan Institute of Agriculture and Agrotechnologies
Faculty of “Zooengineering” 2nd year Veterinary Medicine (mammal diseases of
large-horned animals)*

Qung'irov Suyun Murodullo og'li

*Karakalpakstan Institute of Agriculture and Agrotechnologies
Faculty of “Zooengineering” 2nd year Veterinary Medicine (mammal diseases of
large-horned animals)*

Sharifboyeva Sohiba Zokirjon qizi

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqolada chorvachilikda yuqumli kasalliklarni oldini olish masalalarining zoogigiena bilan bog'liq xususiyatlarini ifodalash va bu boradagi ilmiy fikrlarining nazariy jihatdan xossalarini izohlab berilgan. Maqolada veterinariya punktlarini tashkil etish va unda dorixona, ambulatoriya, stansionar kabilarni barpo etish haqida muhofazalari mavjud. Maqolada dizenfeksiya va sanitariya sohalarining vitrineriya sohasi bilan aloqadorligi, hayvonlarning himoya qilinishida turli xil ilmiy izlanishlarni inobatga olish belgilab o'tilgan.*

KALIT SO'ZLAR: *Veterinariya jihozlari, ambulatoriya, dizenfeksiya turlari, izolyator, molxona izolatsiyasi, ventilyasiya, havo tarkibi.*

Annotation: *This article describes the features of zoohygiene-related issues of preventing infectious diseases in livestock farming and explains the theoretical characteristics of scientific ideas on this subject. The article contains provisions on the organization of veterinary points and the establishment of pharmacies, outpatient clinics, inpatient clinics, etc. in them. The article determines the relationship of the disinfection and sanitation sectors with the veterinary sector, and the consideration of various scientific research in the protection of animals.*

Keywords: *Veterinary equipment, outpatient clinics, types of disinfection, isolator, isolation of the barn, ventilation, air composition.*

Atrofimizdagi hayvonot olamini qurshab olgan tabiat doirasida fizik omillar bilan birgalikda havoning harorati, havoning namlanishi va harakatning tezligiga ko'ra ham kasalliklarning yuqish darajasi birmuncha ortishi mumkin. Kimyoviy omillarning havo, suv va shu kabi ozuqa tarkibida tashuvchi minerallari hayvonlarda yuqumli kasalliklarning olib kelishiga sabab bo'ladi. Ayni zoogigiyena turli xil kasalliklarning oldini olishda hayvonlar uchun katta ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda ushbu sohani rivojlantirishda hayvonlarda chidamlilik, qobiliyatini rivojlantirish, hayvonlarning nasllarini saqlab qolish borasida ham turli xil ilmiy faoliyat ishlari amalga oshirilmoqda. Ularning himoya qilinishida yuqumli va yuqimsiz kasalliklar borasida ilmiy faoliyat olib borgan olimlarning

tashqi muhit va ichki muhit borasida chorvachilikka oid ishlarim nazariy qarashlar berib o'tiladi. Aynan bu borada andropozonas kasalliklari ham katta ahamiyat kasb etadi. "Dezinfeksiya - kasallik tarqatuvchi mikroblarga qarshi kurash chora tadbirlaridir. Bu profilaktik, majburiy va yakuniy turlarga bo'linadi. Dezinfeksiyadan oldin molxona mexanik tozalanadi. Agar yuqumli kasallik bilan kasallangan mol turgan bo'lsa 10-15 % lik ishqor bilan hullab, keyin ishga kirishiladi. Profilaktik dezinfeksiya ko'z va bahorda o'tkaziladi. Majburiy dezinfeksiya yuqumli kasalliklar tarqalganda har kuni to kasallik yo'qolguncha o'tkaziladi. Yakuniy dezinfeksiya xo'jalikdan karantin olib tashlansa qilinadi. Dezinfeksiya qilish uchun maxsus apparatlar DUK – maxsus mashina bo'lib 1000 l eritma oladi, VMOK – Koryakovning mexanizasiyalashgan vetpurkagichi, dush ustanovkalari va gidropultlar qo'llaniladi. Dezinfeksiya uchun har xil ximiyaviy moddalar ishlatiladi. Virus tarqatuvchi kasallik bo'lsa 3-5 % li KOH va NaOH, formalin spora hosil qiluvchi mikroblarga qarshi, kuydirgi kasalligida 2-5 % li sulfat fenol kislota aralashmasi va mishyak karbol aralashmasi, 5 % li kreolin va tozalangan karbol kislotasi va boshqalar ishlatiladi. Dezinseksiya – hasharotlarga qarshi kurash choralaridir. Hashoratlarni o'ldirish uchun 1-3 % li xlorofos, neosidol, ektomin, karate va maxsus hid tarqatuvchi malhamlar ishlatiladi".[1]

Zoogigiyena fanini o'qitishning ahamiyati va usullari ushbu sohada ta'lim olayotgan o'quvchi yoshlarga albatta yaxshigina tanishdir. Bu borada turli xil usul va metodlarning qo'llanilishi chorvachilik sohasi yaxshi samaralari keltirib chiqaradi fizik usul havoning o'zaro harorati, nisbiy namligini oshirish yoki uning quruqlashib ketish darajasini o'lchab va bosim bilan aloqador holatdir. Harakatning tezligi va yorug'likning tushish qoladi tuproqning g'ovaklik xususiyatlarini o'rgangan holatda fizik usul ayni bu kasalliklarning rivojlanishi aniqlanishi xususiyatlari bilan bog'liqdir. Galdagi usulimiz kimyoviy usul bo'lib bu suv va ozuqalarning tarkibiy miqdori tuproq va ozuqaning kimyoviy tarkibini o'zaro xossalriga bo'lgan holatda aniqlashni yuzasidan yuzaga keladi. Turli xil

ozuqalarda zaharli moddalarning bo‘lishi yoki alkogoloidlar gulikozalar og‘ir va turli xil metal tuzlarining ham bo‘lishidan ushbu sohaning va usulning asosidir.

Biologik usulda bino havosining turli xil mikroblar bilan tug‘ilgan ekanligi yoki ularni quruqlash himoya qilish ichak tayoqchalarning ifloslanishi turli xil kasalliklarni oldini olishda mikrobiologik taksilogik va bioprobillardan foydalaniladi.

“Chorvachilik sohasida yana bir usul mavjudki uning nomi klinik ya’ni fiziologik kuzatish usullari bu borada hayvonlar organizmini aniqlash, ularning xatti-harakatini bir vaqt kuzatish mobaynida ularga berilayotgan bosqich va natijalarini tekshirish fiziologik usul bilan amalga oshiriladi. Tajriba usuli ushbu usulda turli xil izlanishlar va natijasida amalga oshirilgan islohotlar va yutuqlarning laboratoriyada o‘rganilishi ham so‘zimizning isbotidir. Sharoitdan kelib chiqib davolash usullari ham ayni kamera va tabiiy sharoit bilan yuzaga keladi. Og‘riq qoldiruvchi ukonlar qilishimiz mumkin va xususiy gigiyena borasida turli xil qarashlarni bugungi kunga qadar chorvachilik sohasida ilmiy faoliyat yuritayotgan kishilar xususiy gigiyenaning ayniqsa qoramollar, cho‘chqalar, qo‘ylar, parrandalar bilan birgalikdan quyonlar, ot va uy hayvonlari bo‘lgan it va mushuklarga ham aloqador qismlarin izohlab beradi”.[2] Umumiy gigiyena esa har qanday hayvon turi bilan ishlayotgan yoki ular bilan tajriba o‘tkazilayotgan daromad topayotgan kishilarga nisbatan tegishli bo‘lishi va o‘zlarini himoya qilish darajasidagi bilimlarga ega bo‘lishi kerak deyiladi. Ushbu soha g‘arbiy yevropada sanitariya gigiyenasi kabi faoliyat bilan nom yuritilgan. 1930-yillariga kelib chorvachilikni rivojlantirish va turli xil mahsulotlarni sifatini oshirishda hayvonlarni laboratoriya va institutlarida kafedralar tomonidan tekshirilishi ham binoniy uslublarni yuzaga keltirdi.

Turli davlatlardan o‘lkaga keltiriluvchi hayvonlarning iqlimlashtirilishi moslashuvchanlik va immunitet tizim bilan bog‘liqdir. Qishloq xo‘jalik hayvonlari gigiyena sohasida zamonaviy vositalar olimlarning ilmiy faoliyati 1994-yilda xalq ommasiga joriy etildi online so‘ng esa Amerika, Rossiya, Fransiya davlatlarining

o'zaro ilmiy izlanishlarini xalq ommasiga joriy qilishda turli mikro organizmlar va hayvonlar gigiyenasiga oid qarashlari va ilmiy izlanishlari bugungi kunga qadar yetib kelganligini ham aytish mumkin. Hayvonlarda qo'zg'otuvchi kasalliklarning ko'z va bahor oylaridan sovuq ob-havo va sharoitlarning rivojlanishidan yuzaga keladi. Shunday qilib, ob-havo o'zgarishlarning yoqimli va yoqimsiz ta'sirlarini oldini olishda hayvonlarda ichki mikroiklim ko'rsatkichlarini rivojlantirish kerak hisoblanadi. Bu borada chorvachilik mahsulotlarining kamayishi 10%dan 50%gacha oshgan ekanligi, ko'payish darajasining 20%dan 15% ga kamaygan ekanligi ham so'zimizning isbotidir. Bu borada mollarning ulushi esa 40%dan 10% qismi kamaygan ekanligi ozuqani ortiqcha xarajati isrofgarchilikdan tejash esa 50%dan 15 %ga qisqargan ekanligi bilan kuzatib kelinmoqda. Hayvonlarda oqsil turli xil yog'lar karbon suvlarining rivojlanishi va to'planishi natijasida oqsil parchalanishi ham yuzaga kelishi mumkin.

Bu jarayonda ayvonlarning issiq nurlanishi ya'ni radiatsiya deb atalib turli xil kasalliklarga ham yuzaga kelishi mumkin. "Oxirgi uch yilda chorvachilik bo'yicha chiqarilgan qarorlarga asosan, 8 turdagi subsidiya va imtiyozli kreditlar ajratish yo'lga qo'yildi. Shu davrda chorvachilikka 15 trillion so'mdan ziyod kredit ajratilib, 4 ming 500 ga yaqin loyiha amalga oshirildi. Naslchilik xo'jaliklarining soni 3 baravarga ko'payib, 1 ming 414 taga yetdi. Natijada, 2019-2021 yillarda chorva mollarining bosh soni 1 million 200 mingtaga ko'paydi. Lekin iqlim o'zgarishlari, suv va yer tanqisligi, pandemiya kabi zamonamizning dolzarb muammolari chorvachilikni ham qiyinlashtirmoqda. Surxondaryo va Qashqadaryoda takroriy ozuqabop ekin maydonlari 23 ming gektarga qisqargan. Shu bois, chorvachilik sohasini qo'llab-quvvatlash, resurs tejovchi texnologiyalarni keng qo'llash orqali go'sht, sut va tuxum yetishtirishni ko'paytirish har qachongidan ham zarur bo'lmoqda. Davlatimiz rahbari bu yil chorvachilikda kamida 300 ming, qo'y-echkichilikda 150 ming, pillachilikda 1 million 200 ming, jami 1 million 650 ming aholi bandligini ta'minlash imkoni borligini ta'kidladi".[3]

Qishloq hayotidagi yoki chorvachilik sohasidagi ishbilarmonlar ayni bu qon kasalliklariga qarshi kurashish masalasini ilgari masalalarda ham havo tarkibidagi namlik xususiyatlari kasallikning tarqatuvchi rivojlantiruvchi belgilariga bog'liq.

Bunda

- mutloq;
- maksimal;
- nisbiy;
- defisit

kabi namlik turlari yuzaga keladi. Ayni bu borada havoning fizik xossalari va ularga nisbatan organizm va orzuqalarning umumiyliigi inobatga olinadi havodagi chang yoki mikroorganizmlar va aksiyalari o'zaro integratsiyalashuv natijasidan kasalliklar yuzaga keladi. Qishloq xo'jalik hayvonlarni iqlimlashtirish masalasi ham uzoq vaqtlardan buyon katta bir muhokamalarga sabab bo'lib kelmoqda. Bu borada yevropadan mahalliy hududlarga keltirilgan chorvachilik mollarini iqlimga moslashtirish masalasi katta ro'l o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Musinov Ya.X. Chalabayev A.J. Zoogigiyena (ma'ruzalar kursi) Samarqand - 2012 y
2. Suvonqulov Y. A. «Qishloq xo'jalik hayvonlari gigiyenasi» Toshkent 1994 y.
3. Y. Olimqulov, A. Abduvohidov, J. Murtazayev. Surxondaryo viloyatida chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish. Science and innovation – 2022 y